

T/r	Loyiha mavzusi	Fan yoʻnalishi Filologiya va ijtimoiy fanlar
1.	Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va targʻibotiga oid “Katta ashula – milliy meros” nomli multimedia mahsulotini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - nomoddiy madaniy meros hisoblangan “Katta ashula”ning tarkibi, tarixi va ijroi-amaliyoti tadqiq etiladi; - XX asr davomida Fargʻona vodiysida keng tarqalgan Katta ashula namunalari tarkibi oʻrganilib, ilmiy nazariy yoritiladi; - toʻplangan manba va namunalar asosida maʼlumotlar bazasi, notalar toʻplami va audio-video ijro yozuvlari shakllantiriladi; - “Katta ashula – milliy meros” nomli QR-kodli oʻquv qoʻllanma yaratiladi va nashr etiladi; - “Katta ashula”ning keng nomoddiy madaniy meros sifatidagi targʻibotiga qaratilgan “Katta ashula – milliy meros” nomli maxsus veb-sayt yaratiladi. Natijalarni sinovdan oʻtkazish. Olingan natijalar Madaniyat vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan oʻtkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi.. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, oʻquv qoʻllanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus maʼlumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qoʻllab-quvvatlash xati mavjud boʻlganida qabul qilinadi.